

**FARG'ONA IQTISODIY RAYONI SHAHARLARINING FUNKSIONAL TIPOLOGIYASI
VA KLASSIFIKATSIYASI**

Ne'matova Madinabonu Abdusattor qizi – *tayanch doktorant*

madinabonunematova17@gmail.com

Namangan davlat universiteti

**ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ТИПОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ГОРОДОВ
ФЕРГАНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА**

Неъматова Мадинабону Абдусатторовна – *базовый докторант*

Наманганский государственный университет

**FUNCTIONAL TYPOLOGY AND CLASSIFICATION OF CITIES
IN THE FERGANA ECONOMIC REGION**

Ne'matova Madinabonu Abdusattorovna – *Doctoral student*

Namangan State University

Tayanch so'zlar: shaharlashuv, shaharlar klassifikatsiyasi, funksional tipologiya, genetik klassifikatsiya, demografik salohiyat, shaharlar tizimi, shaharlar ierarxiyasi, hududiy rivojlanish, qulaylik indeksi.

Rezyume. Maqola Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlarining shakllanishi, funksiyasi, demografik rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Shaharlarning mintaqaviy shaharlar tizimidagi o'rni, ierarxik tuzilishi, demografik salohiyati baholanib, aholi soniga ko'ra guruhlashtirildi va klassifikatsiyasi ishlab chiqildi. Olingan natijalar shaharlar rivojlanishini ilmiy baholash, hududiy rejalashtirish, shaharlar yashash muhitining qulaylik indeksini aniqlash va baholashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ключевые слова: урбанизация, классификация городов, функциональная типология, генетическая классификация, демографический потенциал, система городов, иерархия городов, территориальное развитие, индекс комфортности.

Резюме. В статье проанализированы особенности формирования, функциональной структуры и демографического развития городов Ферганского экономического района. Оценены место городов в региональной системе расселения, их иерархическая структура и демографический потенциал, а также разработана авторская классификация на основе численности населения. Полученные результаты служат важной методической основой для научной оценки развития городов, территориального планирования, а также определения и оценки индекса комфортности городской среды.

Key words: urbanization, city classification, functional typology, genetic classification, demographic potential, urban system, urban hierarchy, territorial development, livability index.

Summary. The article analyzes the formation, functional structure, and demographic development characteristics of the cities of the Fergana Economic Region. The study assesses the position of cities within the regional urban system, their hierarchical structure, and demographic potential, and develops an authorial classification based on population size. The findings provide an important methodological basis for the scientific assessment of urban development, territorial planning, as well as the determination and evaluation of the urban livability index.

Kirish. Farg'ona iqtisodiy rayoni O'zbekiston Respublikasining urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Mintaqa aholi zichligining yuqoriligi, tabiiy-geografik sharoitlarining qulayligi, qadimiy sug'orma dehqonchilik an'analari shakllanganligi, rivojlangan transport-kommunikatsiya tarmoqlari hamda sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarining yuqori darajada taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi. Ushbu omillar mintaqada shaharlar tarmog'ining shakllanishi va rivojlanishi uchun mustahkam iqtisodiy-geografik asos yaratgan.

Mintaqadagi shaharlar tarixiy shakllanish jarayoni, iqtisodiy-geografik o'rni, xo'jalik ixtisoslashuvi, demografik salohiyati va bajaradigan funksiyalariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Ayrim shaharlar yirik sanoat va xizmat ko'rsatish markazlari sifatida rivojlangan bo'lsa, boshqalari transport tugunlari, agroindustrial markazlar yoki mahalliy ahamiyatdagi ma'muriy va servis markazlari vazifasini bajaradi. Shu sababli Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlari funksional tarkibi va ierarxik mavqeiga ko'ra murakkab hamda ko'p pog'onali urbanistik tizimni tashkil etadi.

Mazkur maqolaning **maqsadi** Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlarini tarixiy shakllanish omillari, iqtisodiy geografik

funksiyalari va xo'jalik ixtisoslashuvi asosida genetik tipologiyalash hamda aholi soniga ko'ra klassifikatsiyalashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlari shakllanishining tarixiy-geografik omillari hamda ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni aniqlash va tahlil qilish;

- mintaqa shaharlari iqtisodiy-geografik o'rni, funksiyalari va xo'jalik ixtisoslashuvining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

- Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlarini genezisiga tipologik klassifikatsiyalash hamda aholi soniga ko'ra shaharlar ierarxiyasini aniqlash;

Mavzuning o'rganilishi. Shaharlar tipologiyasi va klassifikatsiyasi masalalari jahonda, shuningdek, MDH geourbanistika maktabida keng o'rganilgan. Shaharlarning iqtisodiy-geografik o'rni va hududiy funksiyalarini ilmiy asoslashda N.N.Baranskiy muhim o'rin tutadi [9]. U shaharlarning rivojlanishida iqtisodiy-geografik o'rin hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ta'kidlagan. G.M.Lapponing "География городов" asarida shaharlarni iqtisodiy

funksiyasi va hududiy ta'sir doirasiga ko'ra klassifikatsiyalash masalasi chuqur tadqiq qilingan bo'lib shaharlar geografiyasini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi [5]. Shuningdek, shaharlarning funksiyasi, genezisi, ixtisoslashuvi, hududiy differensiallashuv masalalarini chuqur tahlil qilgan E.N.Pertsik [7], Y.G.Saushkin [9], O.A.Davidovich [4] kabi olimlarning hissasi katta. Germaniyada "Markaziy o'rin" nazariyasi shaharlarning xizmat ko'rsatish funksiyasi hamda urban ierarxiyasini tushuntirishda muhim metodologik asosi V.Kristaller tomonidan ishlab chiqilgan [10].

O'zbekistonda geourbanistik tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Farg'ona vodiysi shaharlari bo'yicha ilmiy izlanishlarning dastlabkisi N.G.Smirnov tomonidan 1962-yilda yozilgan "Farg'ona vodiysi shaharlari" nomli asar hisoblanadi. Shuningdek shaharlar rivojlanishiga hissa qo'shgan urbanologlardan Z.Akramov, T.Raimov, O.Ata-Mirzayev, A.Soliyev, E.Ahmedov, A.Qayumov, T.Mallabayev, S.Tashtayeva, M.Egamberdiyeva, P.Qurbonov va boshqalarni keltirish mumkin. Shaharlarni zamonaviy qulaylik indeksini baholash avvalo, shaharlar kelib chiqishi, bajaradigan funksiyasi, demografik salohiyati, ixtisoslashuvi va infratuzilmalarning shakllanishi bilan bog'liq [6]. Farg'ona iqtisodiy rayonining yirik shaharlarini aholi yashashi uchun yaratilgan qulay muhit, shaharlardagi xizmatlar sifati, ekologik holat, transport qulayligi, ijtimoiy infratuzilma va hayot farovonligi kabi ko'rsatkichlar orqali kompleks baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot vodiya shaharlarining genezisi, funksiyalari va hududiy rivojlanish xususiyatlarini nazariy asos sifatida qabul qilgan holda, ularni zamonaviy qulaylik indeksi mezonlari orqali baholashga qaratilganligi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [6].

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-geografik tahlil, tarixiy-taqqoslama, statistik guruhlash, tipologik klassifikatsiya metodlaridan foydalanildi. Shaharlarning shakllanish omillari, iqtisodiy ixtisoslashuvi va hududiy funksiyalari asosida quyidagi genetik guruhlar ajratildi: Qadimiy savdo-hunarmandchilik shaharlari; sanoatlashuv asosida shakllangan shaharlar; transport-geografik o'rin ta'sirida rivojlangan shaharlar; agroindustrial markazlar; rekreatsiya va tog'oldi hududlarida joylashgan shaharlar.

Shuningdek, shaharlarning funksional tarkibini baholashda ularning sanoat, xizmat ko'rsatish, transport, savdo, ma'muriy boshqaruv, rekreatsiya funksiyalari tahlil qilindi. Aholisi soniga ko'ra klassifikatsiyasi ishlab chiqiladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Farg'ona iqtisodiy rayoni O'zbekistonning qadimiy urbanizatsiyalashgan hududlaridan biri bo'lib, Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarini o'z ichiga oladi. Maydoni 18,5 ming kv.km ni tashkil etib, mamlakat hududining 4,2 % qismini egallaydi. Aholisi 10 740,5 ming kishi (2025), mamlakat aholisining 30 foizini tashkil qiladi. Urbanizatsiya darajasi 58 foiz. Respublikadagi shaharlarning 23,3 foizi (120 tadan 28 tasi) Farg'ona iqtisodiy rayoni hissasiga to'g'ri keladi. Ularning 11 tasi Andijon, 8 tasi Namangan, 9 tasi Farg'ona viloyatlarida joylashgan. Mazkur ko'rsatkichlar Farg'ona iqtisodiy rayonining nafaqat demografik salohiyati, balki urbanistik rivojlanish darajasi jihatidan ham mamlakatning yetakchi hududlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Hududning nisbatan kichik maydonda katta aholi va shaharlar

tarmog'ini mujassamlashtirgani, bu yerda urbanizatsiya jarayonlarining uzoq tarixiy davrlar davomida shakllanganligini hamda shaharlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning murakkab va ko'p qirrali ekanligini anglatadi. Ayniqsa, tabiiy-geografik sharoitlarning qulayligi, sug'orma dehqonchilikning qadimiy markazi sifatida shakllanganligi, transport-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi, aholi zichligining yuqoriligi hamda hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi mintaqada turli funksional yo'nalishga ega bo'lgan shaharlarning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Shu bois iqtisodiy rayon shaharlarini faqat ularning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy holati nuqtai nazaridan emas, balki shakllanish omillari, rivojlanish bosqichlari va hududiy funksiyalari asosida tadqiq etish muhim. Chunki shaharlarning bugungi iqtisodiy qiyofasi va hududiy mavqei ko'p jihatdan ularning tarixiy genezisi hamda shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar bilan belgilanadi. Mintaqa shaharlarini genetik jihatdan guruhlash esa ularning hududiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, urbanizatsiya jarayonlarining xususiyatlarini baholash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini asoslash imkonini beradi. Iqtisodiy rayon shaharlarini shakllanish omillarini o'rganish davomida quyidagi guruhlar ajratildi:

1. *Qadimiy savdo-hunarmandchilik shaharlari* – ushbu guruhga Buyuk ipak yo'li yo'nalishlarida savdo, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish faoliyati ustun bo'lgan *Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Chust, Quva, Rishton* kabi shaharlar kiritildi. Mazkur shaharlarning genezisi Farg'ona vodiysida qadimdan mavjud bo'lgan sug'orma dehqonchilik vohalari, Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari hamda xalqaro va mintaqaviy savdo aloqalari bilan chambarchas bog'liq. Ular dastlab karvon yo'llari bo'yida savdo manzillari, hunarmandchilik markazlari va mahalliy bozorlar sifatida shakllanib, keyinchalik siyosiy-ma'muriy hamda madaniy markazlarga aylangan. Ushbu shaharlar urbanizatsiya jarayonining eng qadimiy qatlamini tashkil etib, ko'p asrlik tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tganligi bilan ajralib turadi [12].

2. *Sanoatlashuv asosida shakllangan shaharlar* – *Asaka, Farg'ona* va *Quvasoy* shaharlari ushbu guruhga mansub. Mazkur shaharlarning shakllanishi va o'sishi XIX asr oxiri – XX asr davomida mintaqa sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi, tabiiy resurslarni o'zlashtirish hamda yangi ishlab chiqarish majmualarining barpo etilishi bilan bog'liq. Xususan, Farg'ona shahri Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi davrida yangi ma'muriy va harbiy tayanch punkt sifatida vujudga kelib, keyinchalik neftni qayta ishlash va kimyo sanoati markaziga aylangan [8]. Quvasoy shahri mahalliy mineral xomashyo resurslari negizida qurilish materiallari sanoati rivojlanishi bilan shakllangan bo'lsa, Asaka shahri sanoatlashtirish siyosati va avtomobilsozlik tarmoqlarining rivojlanishi natijasida yirik sanoat markazi sifatida taraqqiy etgan [10]. Ushbu shaharlarning genezisi ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish jarayonlari bilan belgilanadi.

3. *Transport geografik o'rin ta'sirida rivojlangan shaharlar* – *Poytug', Qo'rg'ontepa, Qorasuv, Xo'jaobod, Pop, Xonobod, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on*. Mazkur shaharlarning vujudga kelishida transport yo'llari kesishgan nuqtalarda joylashganligi, temir yo'l stansiyalari, avtomobil yo'llari, chegaraoldi hududlar va tranzit aloqalarning rivojlanishi asosiy omil bo'lgan. Ular dastlab transport

bekatlari, savdo almashuv punktlari yoki yo‘lbo‘yi aholi punktlari sifatida shakllanib, keyinchalik urbanistik markazlarga aylangan. Shuning uchun ushbu guruh shaharlarining kelib chiqishi transport-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

4. *Agroindustrial markazlar – Paxtaobod, Jalaquduq, Marhamat, Beshariq, Shahrison, Yaypan, Tinchlik, Xaqqulobod*, kabi shaharlarda agroservis, oziq-ovqat sanoati, paxtachilik, bog‘dorchilik mahsulotlarini qayta ishlash asosida vujudga kelgan. Ushbu shaharlarning shakllanishida sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashga ixtisoslashgan xo‘jaliklarning tashkil etilishi muhim rol o‘ynagan. Dastlab yirik qishloq xo‘jaligi rayonlarining xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida vujudga kelib, keyinchalik sanoat va servis funksiyalarining rivojlanishi natijasida shahar maqomini olgan. Mazkur shaharlarning vujudga kelishi agrar iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq.

5. *Rekreatsiya va tog‘oldi hududlarida shakllangan Chortoq va Kosonsoy* shaharlari ushbu guruhga kiritildi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishi tog‘oldi tabiiy landshaftlari, mineral suv manbalari, qulay iqlim sharoiti hamda davolash-sog‘lomlashtirish resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq. Mazkur hududlar dastlab aholi dam olish va davanish maskanlari sifatida rivojlanib, keyinchalik doimiy aholi yashaydigan joy hamda shahar tipidagi aholi punktlariga aylangan. Shu bois ushbu shaharlarning genezisi tabiiy-rekreatsion resurslarni o‘zlashtirish jarayonlari bilan izohlanadi.

Ta’kidlash joizki, Farg‘ona iqtisodiy rayoni shaharlari-ning aksariyati polifunksional xususiyatga ega bo‘lib, shaharlarning rivojlanishida bir nechta omillar birgalikda ishtirok etadi. Biroq yuqorida keltirilgan genetik klassifikatsiyada shaharlarning bugungi funksiyalari emas, balki, dastlabki shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan yetakchi omillar asos qilib olindi. Shaharlar tizimining hozirgi holatini to‘liq baholash uchun faqat shakllanish omillari bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shu sababli genetik klassifikatsiyalashdan keyingi bosqichda shaharlarning demografik salohiyati va urbanistik ierarxiyadagi o‘mini aniqlash maqsadida ularni aholi soniga ko‘ra klassifikatsiya qilish zarur hisoblanadi.

1-jadval.Farg‘ona iqtisodiy rayoni shaharlarining aholi soniga ko‘ra so‘ngi o‘n yillik o‘zgarishi

Shaharlar toifasi	Shaharlar aholisi soni	Nomlanishi	FIR shaharlari aholisi soni (ming kishi)			
			Shaharlar 2016-yil		Shaharlar 2025-yil	
I	1 million va undan ortiq	Eng yirik “millioner”	-	-	-	-
II	250 mingdan 1 milliongacha	Yirik shaharlar	Namangan	493,3	Namangan	713,4
			Andijon	416,3	Andijon	492,4
			Farg‘ona	271,0	Farg‘ona	328,4
					Qo‘qon	313,6
					Marg‘ilon	257,9

III	100 mingdan 250 minggacha	Katta shaharlar	Qo‘qon	236,8	Quvasoy	103,1
			Marg‘ilon	218,9		
IV	50 mingdan 100 minggacha	O‘rtacha shaharlar	Quvasoy	96,9	Shahrixon	89,7
			Shahrixon	71,4	Chust	85,2
			Chust	69,1	Asaka	80,5
			Asaka	62,2	Chortoq	64,2
			Chortoq	53,4	Kosonsoy	62,8
			Kosonsoy	50,9	Quva	55,5
V	50 ming kishigacha	Kichik shaharlar	Quva	46,4	Uchqo‘rg‘on	47,3
			Xonobod	44,0	Xonobod	46,5
			Uchqo‘rg‘on	40,7	Rishton	42,1
			Rishton	34,8	Qorasuv	41,0
			Paxtaobod	34,4	Paxtaobod	40,3
			Qorasuv	33,0	Qo‘rg‘ontepa	38,1
			To‘raqo‘rg‘on	30,3	To‘raqo‘rg‘on	36,9
			Pop	28,0	Xaqqulobod	33,1
			Xaqqulobod	27,5	Poytug‘	32,5
			Poytug‘	26,0	Pop	31,8
			Qo‘rg‘ontepa	25,8	Jalaquduq	28,1
			Beshariq	25,2	Beshariq	27,0
			Jalaquduq	24,0	Yaypan	27,0
			Yaypan	22,1	Xo‘jaobod	24,9
			Xo‘jaobod	20,2	Marhamat	18,6
			Marhamat	16,4	Tinchlik	17,9
Tinchlik	15,8					
Jami			28 ta		28 ta	

Izoh: Jadval muallif tomonidan Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksida belgilangan mezonlar asosida Farg‘ona iqtisodiy rayoni shaharlar tizimining aholi soni bo‘yicha murakkab va ko‘p pog‘onali ierarxiya tuzilishga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Iqtisodiy rayon shaharlari orasida aholisi 1 million kishidan ortiq bo‘lgan eng yirik (“millioner”) shaharlar shakllanmagan. Mazkur holat mintaqada urbanizatsiya jarayonlari klassik monotsentrik model asosida emas, balki bir nechta yirik va o‘rta shaharlar o‘rtasida funksional vazifalar taqsimlangan politsentrik (ko‘p markazli) urbanistik tizim shaklida rivojlanganligini anglatadi. Bu jihat Farg‘ona iqtisodiy rayonini respublikaning boshqa hududlaridan ajratib turuvchi muhim geourbanistik xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Shaharlar ierarxiyasining vaqt mobaynidagi transformatsiyasini aniqlash maqsadida 2016 va 2025-yillar ma’lumotlari qiyosiy tahlil qilindi (1-jadval). Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘n yillikka yaqin davr mobaynida mintaq shaharlar tizimida miqdoriy o‘zgarishlar bilan bir qatorda sifat jihatidan ham muhim siljishlar yuz bergan. Xususan, 2016-yilda II toifadagi yirik shaharlar guruhiga faqat Andijon, Namangan va Farg‘ona shaharlari mansub bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu toifa tarkibi Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlari hisobiga kengaydi. Natijada yirik shaharlar soni 3 tadan 5 taga yetdi. Mazkur o‘zgarish mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlarining yangi bosqichga o‘tganligini aks ettiradi. Chunki shaharlarning yuqori toifaga o‘tishi faqat aholi sonining ortishi bilan emas, iqtisodiy-geografik mavqei, hududiy

ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish salohiyati va funksional ahamiyatini ortishi bilan bog'liq. Qo'qon shahri tarixan Farg'ona vodiysining yirik siyosiy, madaniy va savdo markazlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, hozirgi davrda ham mintaqaning g'arbiy qismida transport-kommunikatsiya tuguni, sanoat va xizmat ko'rsatish markazi vazifasini bajarmoqda. Shaharning Toshkent–Farg'ona transport yo'lagi bo'ylab joylashganligi, aholining yuqori zichligi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanganligi uning urbanistik salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Marg'ilon shahrining yirik shaharlar toifasiga o'tishi esa, avvalo, uning Farg'ona–Marg'ilon aglomeratsiyasi tarkibidagi o'rni bilan izohlanadi. Marg'ilon tarixiy jihatdan hunarmandchilik va ipakchilik markazi sifatida tanilgan, so'nggi yillarda sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi natijasida iqtisodiy funksiyalari kengaydi. Shuningdek, Farg'ona shahri bilan hududiy yaqinlik va transport aloqalarining kuchliligi ushbu shaharning demografik va iqtisodiy o'sishini jadallashtiruvchi omillardan biri bo'ldi.

Katta shaharlar (100–250 ming kishi) toifasida esa aksincha qisqarish kuzatildi. 2016-yilda ushbu guruhga Qo'qon va Marg'ilon shaharlari kirgan bo'lsa, 2025-yilda ularning yuqori toifaga o'tishi natijasida mazkur guruhda faqat Quvasoy shahri qolgan. Bu holat mintaqada o'rta va katta shaharlarning yirik shaharlarga transformatsiyalanish jarayoni kuchayib borayotganini anglatadi.

O'rtacha shaharlar guruhida ham muayyan tarkibiy o'zgarishlar kuzatildi. 2016-yilda Quvasoy, Shahrixon, Chust, Asaka, Chortoq va Kosonsoy shaharlari ushbu toifaga mansub bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda Quvasoyning katta shaharlar guruhiga o'tishi hisobiga uning o'rnini Quva shahri egalladi. Shahrixon (89,7 ming kishi), Chust (85,2 ming kishi) va Asaka (80,5 ming kishi) shaharlari mazkur guruhning yetakchi markazlariga aylandi. Ushbu shaharlar aholisi sonining ortishi ularning tuman markazi sifatidagi ma'muriy mavqei, sanoat va xizmat ko'rsatish funksiyalarining rivojlanishi hamda ichki migratsiya oqimlarini jalb etish qobiliyati bilan izohlanadi.

Kichik shaharlar guruhi son jihatdan ustun mavqei saqlab qolmoqda. 2025-yilda Farg'ona iqtisodiy rayonidagi 28 shaharning 16 tasi yoki 57,1 foizi ushbu toifaga mansub bo'ldi. Biroq ularning aksariyatida aholi sonining nisbatan sekin o'sishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, Marhamat (18,6 ming kishi), Tinchlik (17,9 ming kishi), Xo'jaobod (24,9 ming kishi), Yaypan (27,0 ming kishi) va Beshariq (27,0 ming kishi) kabi shaharlar hali ham kichik urban markazlar sifatida shakllanib qolmoqda. Bu esa urbanizatsiya jarayonining hududiy jihatdan notekis kechayotganligini ko'rsatadi. Kichik shaharlarning aksariyati tuman markazlari, agroindustrial punktlar yoki mahalliy xizmat ko'rsatish markazlari sifatida faoliyat yuritadi. Ular hududiy mehnat taqsimotida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, savdo, logistika va aholiga kundalik xizmatlar ko'rsatish orqali muhim vazifalarni bajaradi. Shu sababli kichik shaharlarning son jihatdan ustunligi urbanizatsiyaning sustligini emas, balki mintaqaning zich joylashgan aholi va tarixan shakllangan aholi punktlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

2016–2025-yillar davomida Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlari tizimida demografik konsentratsiyaning kuchayishi, yirik shaharlar sonining ortishi va urban ierarxiyaning murakkablashuvi kuzatildi. Natijada mintaqaning shaharlar tayanch tizimi Namangan – Andijon – Farg'ona – Qo'qon – Marg'ilon kabi yirik markazlar atrofida shakllandi.

Mazkur shaharlar iqtisodiy o'sish, mehnat bozori, ta'lim, xizmatlar va innovatsion rivojlanishning asosiy tayanch nuqtalariga aylanmoqda. Bu esa Farg'ona iqtisodiy rayonida polisentrik shahar tizimining shakllanayotganligini hamda urbanizatsiya jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tayotganligini ko'rsatadi.

2-jadval. Shaharlar kattaligiga ko'ra klassifikatsiyasining xalqaro va mahalliy ilmiy yondashuv asosidagi qiyosiy jadvali (ming kishi)

Shaharlar kategoriyalari	Xalqaro yondashuv		MDH geourbanistika maktabi olimlari				Mahalliy yondashuv	
	Rossiya	Germaniya	V.P.Semyonov-Tyanshanskiy	V.G.Davidovich	G.M.Lappo	E.N.Pertsik	O'zbekiston	A.A.Soliyev va D.E.To'xtaboyeva
*"Millioner shahar"	-	-	-	1000+	1000+	1000+	1000+	1000+
Juda yirik	500+	-	-	-	500-1000	500-1000	-	500-1000
Yirik	250-500	100+	100-1000	250-1000	250-500	250-500	250-1000	250-500
Katta	100-250	-	40-1000	100-250	100-250	100-250	100-250	100-250
O'rta	50-100	20-100	10-40	50-100	50-100	50-100	50-100	50-100
Yarim o'rta	-	-	-	20-50	20-50	20-50	-	20-50
Kichik	50 gacha	5-20	5-10	10-20	10-20	10-20	50 gacha	10-20
Juda kichik	-	-	1-5	10 gacha	10 gacha	10 gacha	-	10 gacha

Izoh: Jadval muallif tomonidan [1], [3], [10], adabiyotlar asosida tuzildi.

Shaharlarni aholi soniga ko'ra klassifikatsiya qilishda turli mamlakatlar va geourbanist olimlarning ilmiy yondashuvlari o'rtasida umumiy bog'liqlik mavjud. Biroq ayrim mezonlari bir biridan farq qiladi (2-jadval). Barcha yondashuvlarda yirik va katta shaharlar alohida guruh sifatida ajratilgan bo'lib, bu shaharlarning hududiy rivojlanishdagi o'rni muhim ahamiyatga ega ekani bilan izohlanadi. Germaniya shaharsozlik maktabi boshqa yondashuvlardan keskin farq qiladi. Unda aholisi 100 ming kishidan ortiq bo'lgan barcha shaharlar yirik shaharlar qatoriga kiritilgan. Rossiya, O'zbekiston hamda MDH geourbanistika maktabi vakillari bo'lgan V.G.Davidovich, G.M.Lappo va E.N.Pertsik klassifikatsiyalarida esa yirik shaharlar uchun

minimal chegara 250 ming kishi deb belgilangan. Bu holat Germaniyada urbanizatsiya darajasining yuqoriligi hamda shaharlar tarmog'ining rivojlanganligini anglatadi.

MDH geourbanistika maktabi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiyalar o'zaro yaqinligi bilan ajralib turadi. Xususan, V.G.Davidovich, G.M.Lappo, E.N.Pertsik hamda A.A.Soliyev va D.E.To'xtaboyeva [11] tomonidan taklif etilgan klassifikatsiyalarda yirik, katta va o'rta shaharlar uchun deyarli bir xil aholi soni mezonlari qo'llangan. Bu esa mazkur yondashuvlarning yagona geourbanistik maktab asosida shakllanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu klassifikatsiyalarda 20-50 ming kishilik aholi punktlari alohida "yarim o'rta shaharlar" guruhi sifatida ajratilgan. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi va Rossiya shaharsozlik amaliyotida esa bunday shaharlar kichik shaharlar tarkibida baholanadi. Natijada 20-50 ming kishilik shaharlarning urbanistik salohiyati va hududiy funksiyalarini alohida baholash imkoniyati cheklanadi. V.P.Semyonov-Tyanshanskiy klassifikatsiyasi esa eng qadimgi yondashuvlardan biri bo'lib, unda shaharlar nisbatan kichik aholi soni diapazonlari asosida guruhlashtirilgan. Masalan, 1-5 ming kishilik aholi punktlari ham alohida shahar kategoriyasi sifatida ko'rsatilgan. Bu holat XX asr boshlarida urbanizatsiya darajasi hozirgiga nisbatan ancha past bo'lganligini aks ettiradi.

Zamonaviy geourbanistik tadqiqotlar uchun V.G.Davidovich, G.M.Lappo, E.N.Pertsik hamda A.A.Soliyev va D.E.To'xtaboyeva klassifikatsiyalari nisbatan mukammal hisoblanadi. Biroq Farg'ona vodiysi shaharlarini urban tizimdagi o'rni aniq namoyon qilish imkonini bermaydi. Shu bois Farg'ona mintaqasi shaharlarini alohida o'rganish uchun yuqorida keltirilgan manbaalar asosida klassifikatsiya ishlab chiqildi.

3-jadval.Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlarining aholi soni bo'yicha klassifikatsiyasi (2025)

Shahar toifasi	Aholi soni (ming kishi)	Shahar kategoriyasi	Shaharlar funksional tavsifi	Farg'ona mintaqasi shaharlari	Aholisi (ming kishi)	Shaharlar aholisi tarkibidagi ulushi (%)
I	500 dan ortiq	Juda yirik	Mintaqada aholi soni tez o'sadigan, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish rivojlangan.	Namangan Andijon	1 231,6	36,5
II	250-500	Yirik	Mintaqa miqyosidagi boshqaruv, iqtisodiy va xizmat ko'rsatish funksiyalari mujassamlashtirilgan yirik urban markazlar	Farg'ona Qo'qon Marg'ilon	916,6	27,4

III	100-250	Katta	Sanoat, savdo va transport funksiyalari rivojlangan markazlar	Quvasoy	104,8	3,9
IV	40-100	O'rta	Tumanlararo xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish markazlari	Shahrixon Chust Kosonsoy Chortoq Asaka Xonobod Uchqo'rg'on Qorasuv Paxtaobod Quva Rishton	696,2	21,1
V	20-40	Kichik	Mahalliy Iqtisodiy faoliyat va aholi xizmatlari markazlari	Pop To'raqo'rg'on Xaqqulobo Jalaquduq Poytug' Qo'rg'on-tepa Xo'jaobod Tinchlik Beshariq Yaypan	304,2	9,7
VI	20 ming-dan kam	Juda kichik	Mahalliy ahamiyatga ega urban punktlar	Marhamat	19,0	1,4
Jami				28	3 272,4	100

Izoh: Jadval muallif tomonidan shakllantirildi.

Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlari uchun ishlab chiqilgan klassifikatsiya mavjud xalqaro va milliy yondashuvlardan farqli ravishda mintaqaning o'ziga xos demografik va urbanistik xususiyatlari hisobga olindi. Mazkur klassifikatsiyaning asosiy farqi shundaki, shaharlar faqat aholi soni bo'yicha emas, balki ularning hududiy funksiyasi, xizmat ko'rsatish darajasi, iqtisodiy salohiyati va urban tizimdagi o'rni ham inobatga olingan.

Mazkur klassifikatsiyasiga ko'ra, iqtisodiy rayonda aholi hududlar bo'yicha notekis taqsimlangan. Aholi asosan yirik va juda yirik shaharlarda konsentratsiyalashgan. Jumladan, juda yirik shaharlar toifasiga kiruvchi Namangan va Andijon shaharlari mintaqa shaharlari aholisi umumiy sonining 36,5 foizini o'zida mujassamlashtirgan. Mazkur shaharlar iqtisodiy rayonning asosiy demografik, sanoat, transport va xizmat ko'rsatish markazlari sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, Namangan shahri aholi soni bo'yicha mintaqaning eng yirik urban markazi bo'lib, uning ta'sir zonasi viloyat chegaralaridan tashqariga ham chiqmoqda.

Ikkinchi toifaga mansub Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari jami shahar aholisining 27,4 foizini tashkil etadi. Natijada I va II toifadagi beshta yirik shahar hissasiga mintaqa shahar aholisining 63,9 foizi to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich urbanizatsiya jarayonining yuqori darajada markazlashganligini hamda mintaqaning urban rivojlanishi bir necha tayanch markazlar atrofida shakllanayotganligini anglatadi.

Katta shaharlar toifasida faqat Quvasoy shahrining mavjudligi mintaqa shaharlar tizimida o'ziga xos «demo-

grafik bo'shliq» shakllanganligini ko'rsatadi. Ya'ni, aholi soni bo'yicha 100 – 250 ming kishilik shaharlar sonining kamligi urban ierarxiyaning muvozanatli rivojlanmaganligini anglatadi. Bunday holat yirik markazlar bilan o'rta shaharlar o'rtasidagi funksional va demografik tafovutlarning ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'rta shaharlar guruhi (21,1%) mintaqaning hududiy tayanch tizimida muhim o'rin egallaydi. Shahrixon, Chust, Asaka, Chortoq, Kosonsoy, Quva, Rishton, Paxtaobod, Qorasuv, Uchqo'rg'on va Xonobod kabi shaharlar tumanlararo xizmat ko'rsatish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, savdo va transport aloqalarini tashkil etuvchi markazlar sifatida faoliyat yuritadi.

Kichik va juda kichik shaharlar hissasiga mos ravishda 9,7 va 1,4 foiz shahar aholisi to'g'ri kelmoqda. Son jihatdan ular mintaqadagi barcha shaharlarning qariyb 40 foizini tashkil etsa-da, aholi salmog'i bo'yicha ulushi atigi 11,1 foizni tashkil etadi. Bu holat urban tizimda aholi va iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada konsentratsiyalashganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur shaharlar qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi funksional bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajarib, aholiga kundalik xizmatlar ko'rsatish, mahalliy mehnat bozorini shakllantirish va hududiy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot doirasida Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlarining kelib chiqishi, shakllanish omillari, funksional vazifalari, xo'jalik ixtisoslashuvi, demografik salohiyati hamda mintaqaviy shaharlar tizimidagi o'rni kompleks tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar Farg'ona iqtisodiy rayoni O'zbekistonning qadimiy urbanizatsiyalashgan, aholi zich joylashgan va ko'p markazli shaharlar tizimiga ega hududlaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

Birinchidan, mintaq shaharlari shakllanishining genetik asoslari aniqlanib, ularning mualliflik genetik klassi-

fikatsiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishida qadimiy savdo-hunarmandchilik an'analari, sanoatlashuv jarayonlari, transport-geografik o'rin, agroindustrial faoliyat hamda rekreatsion resurslar asosiy omillar sifatida namoyon bo'lgan.

Ikkinchidan, shaharlarning funksional tarkibi va xo'jalik ixtisoslashuvi tahlili ularning aksariyati polifunksional xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. Namangan, Andijon, Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari mintaqaning iqtisodiy, ma'muriy, sanoat va xizmat ko'rsatish markazlari sifatida shakllangan bo'lsa, o'rta va kichik shaharlar asosan tumanlararo xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash funksiyalariga ixtisoslashgan.

Uchinchidan, xalqaro va milliy geourbanistik yondashuvlar hamda Farg'ona iqtisodiy rayonining demografik xususiyatlari asosida shaharlarning aholi soni bo'yicha klassifikatsiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqada 2 ta juda yirik, 3 ta yirik, 1 ta katta, 11 ta o'rta, 10 ta kichik va 1 ta juda kichik shahar mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, juda yirik va yirik shaharlar hissasiga jami shahar aholisining 63,9 foizi to'g'ri kelishi shahar aholisi va iqtisodiy salohiyatning yirik markazlarda yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko'rsatdi.

Ishlab chiqilgan genetik, funksional va demografik klassifikatsiyalar Farg'ona iqtisodiy rayoni shaharlarining nafaqat aholi soni bo'yicha farqlanishini, balki ularning mintaqaviy urbanistik tizimdagi funksional mavqei va rivojlanish salohiyatini ham ochib beradi. Mazkur yondashuv hududiy rivojlanishni ilmiy asosda rejalashtirish, shaharlar ierarxiyasini baholash hamda Farg'ona iqtisodiy rayoni yirik shaharlarida yashash muhitining qulaylik indeksini aniqlash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. Shaharsozlik kodeksi. O'RQ-675-son, 2021-yil 22-fevral. – Toshkent: 2021.
2. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Солиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Ташкент: Университет, 2002. –С. 108.
3. Белова А.В. Роль полусредних городов в развитии эксклавного региона России – Калининградской области: диссертация на соискание ученой степени кандидата географических наук. – Калининград: 2015.
4. Давидович В.Г. Планировка городов и районов: инженерно-экономические основы. 2-е изд., перераб. – Москва: 1964. –С. 326.
5. Лаппо Г.М. География городов: учебное пособие для географических факультетов вузов. – Москва: «Владос», 1997. –С. 480. ISBN 5-691-00047-0.
6. Ne'matova M.A, Jumaxanov Sh. Z, *Urban environmental management: ecological and economic aspects of creating green infrastructure*, "Экономика и социум" №3(130)-2 2025, -Р. 139-149.
7. Персик Е.Н. География городов (геоурбанистика): учебное пособие для географических специальностей вузов. – Москва: «Высшая школа», 1991. ISBN 5-06-000602-6.
8. Qurbonov P.R. Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining hududiy tarkibini takomillashtirish: Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2025.
9. Саушкин Ю.Г. История и методология географической науки: курс лекций. – Москва: Издательство Московского университета, 1975.
10. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2020.
11. To'xtaboyeva D.E. Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi kichik va o'rta shaharlarning rivojlanishi: o'zgarishlar va muammolar (1991-2016 yy.): 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: 2019. 157-b.
12. Юсупов И., Мирзаалиев Э. Наманган шахри тарихидан лавҳалар. – Наманган: Наманган вилоят ўлкани ўрганиш музейи, 2010. 114-б.